



## XORAZM VILOYATI HAZORASP TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

Hazorasp tumani, E.Gayazov ko'chasi, 32-uy

2023 - yil «14» - dekabr

274-12-174-F/23

Hazorasp tuman hokimligi

**Tuman ichki ishlar bo'limining 2023-yil 13-dekabrdagi 10/584-sonli yozishmasini e'tiborga olib, Hazorasp tumanida "Prezident archasi" va "Yangi yil" bayrami tadbirlarini o'tkazishda jamoat hamda transport xarakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida:**

1. 2023-yilning 25-dekabrdan 2024-yil 5-yanvargacha Hazorasp tumani markazining quyidagi ko'chalarida:

- Hazorasp shaharchasi "A.Navoiy" ko'chasi "Tuman aloqa bo'limi" binosi oldidan;

- Hazorasp shaharchasi "A.Navoiy" ko'chasi "Tuman maktabgacha va maktab talimi bo'limi" binosi oldidan;

- "O'zbekiston" ko'chasi "Hayot" kafesi binosi oldidan;

- "N.Masharipov" ko'chasi "Kavkaz" binosi oldidagi yo'llardan transport vositalarining harakat qatnovini vaqtinchalik to'xtatib qo'yilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i (J.Madaminov)ga:

- Bayram dasturlari o'tkaziladigan maydonlar oldilaridan 150 metr uzoqlikda transport vositalarini saqlash joylari hamda na'munali jamoat tartibini saqlash, harakatlanish xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rish, ushbu hududlarda qarovsiz qoldirilgan va shubhali ko'ringan transport vositalarini xavfsiz joyga o'tkazish choralarini ko'rish topshirilsin.

3. Ushbu farmoyish bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari G'.Qalandarov va tuman IIB boshlig'i J.Madaminov zimmlariga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Z.Abdirimov